

Turkiya zilzilasi oqibatlari

Sodir bo'lgan zilzila bu qadar vayronagarchilikka olib kelmasligi mumkinmidi?

2023-yil 6-fevral erta tongda Turkiyaning janubi-sharqida, Suriya bilan chegaraga yaqin joyda kuchli zilzila sodir bo'di. Qahramonmarash viloyati Rixter shkalasi bo'yicha 7,7 va 7,4 magnitudali zilzilalar epitsentri bo'lgan. Tabiiy ofat natijasida mamlakatning o'nlab viloyati zarar ko'rdi. So'nggi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 40 ming kishi halok bo'gan, 105 mingdan ortiq kishi jarohatlangan, minglab binolar, uylar vayron bo'gan.

Turkiya va Suriyadagi bu ofat xabari butun dunyo ahlini larzaga soldi. Kop'lab davlatlar tezlikda zilzila vayronalari ostida yotgan insonlarni qutqarish uchun qutqaruvchilar va zarur texnika vositalarini zilziladan jabr ko'rgan Turkiyaga jo'natdilar. O'zbekiston birinchilardan bo'lib o'z qutqaruvchilarini Turkiyaga jo'natdi. Qutqaruvchilar kecha-yu kunduz, har bir daqiqani g'animat bilib vayronalar ostidan juda ko'p odamlarni, hatto yangi tug'ilgan chaqaloqqacha qutqaryaptilar. Zilziladan 10-11 kundan keyin ham qutqaruvchilar vayronalar ostidan Allohning karomati bilanmi, tabiatning mo'jizasi bilanmi, omon qolgan odamlarni vayronalar ostidan olib chiqyaptilar. Barcha davlatlar bu ofat natijalarini bartaraf etish uchun qo'llaridan kelgan yordamni qilyaptilar. Bu haqda juda ko'p gapirish mumkin. Chunki ommaviy axborot vositalarida, radio-televideniya, ijtimoiy tarmoqlarda bu voqealar haqida yozilyapti, ko'rsatilyapti.

Televideniya ko'rsatilgan zilzila vayronagarchiliklarini, tep-tekis bo'lgan shaharlarni ko'rib, yoshim oltmishdan oshgan bo'lsa-da, ko'z yoshlarimni to'xtata olmadim. Ammo meni boshqa bir muammo qiynayapti.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatilayotgan ba'zi video tasvirlarni ko'rib hayratda qolasan kishi. Vayron bo'lgan, yer bilan yakson bo'lgan binolar orasida unchalik shikast yetmagan binolarni ko'rish mumkin. Nega shunday bo'ldi?

Mening fikrimcha, hamma gap binoning qurilishida. Zarar ko'rmagan bino inshootlarning qurilish materiallari – sementi, g'ishti, armaturasi, beton plitasi deysizmi, boringki, qurilishda nima ishlatilgan bo'lsa, hammasi talabga javob

bergan, sifatli bo‘lgan, bino qurilishi ham mohir quruvchi-muhandislar nazoratida bo‘lgan, xullas, poydevoridan mustahkam bo‘lgan, deb o‘ylayman.

Xalqimizda qadimdan qurilishda poydevorga katta ahamiyat berilgan, chunki imorat yoki inshootning mustahkamligi, uzoq davrga chidashi, tabiiy ofatlarga bardoshlilik ko‘p jihatdan poydevorga bog‘liq. Xalqimiz bejizga “Imoratning poydevori mustahkam bo‘lsa qulamaydi” demagan. Turkiyaning zilzila bo‘lgan hududlarida vayron bo‘lmagan, qulamagan inshoot va imoratlardan ko‘rinib turibdiki, bu binolar sifatli xomashyo va pishiq, mustahkam qilib qurilgan, desam yanglishmagan bo‘laman.

Nobel mukofoti sovrindori Jon Steynbek o‘zining “Gam-tashvishlarimiz romani qahramoni Iten tilidan “Men turibman-u uyimga qarayapman. Oldingi zamonlarda qurishni bilganlar” aytgan so‘zlarida imoratsozlik sohasining muammosiga tanqid bilan qarayotgani ma’lum bo‘ladi. Oldingi zamonlarda qurilgan imoratlarning ancha sifatlilik, puxtaligi ta’kidlanayotganligi ma’lum. XX asrning 30-yillaridayoq adib jamiyatning bu muammosiga e’tibor qaratgan.

Keyingi musobaqa asosida shiddat bilan bunyod etilayotgan imoratlarning esa ancha-muncha sifatsizligini Turkiya zilzilasi isbotlab berdi. Agar bino-imoratlar sifatli qurilganda mamlakat bunchalik qurbonlar va talofat ko‘rmagan bo‘lard.

Taraqqiyot, sarmoya yuksalgani sari, odamlarda ochko‘zlik, oz mehnat bilan ko‘p narsaga erishish istagi, balki nafs ovvoraliigi oshib boraverishi kabi ijtimoiy muammoni unutmasligimiz kerak.

Ayni paytda, Turkiyada ana shu vayron bo‘lgan binolar ostida qolib qanchadan qancha kishi jarohatlandi, balki umrbod majruh bo‘lib qoladi. Minglab kishilarning hayotiga zomin bo‘lgan, mamlakat shaharlarining vayron bo‘lishiga sababchi bo‘lgan muhandis va quruvchilar hibsga olindi. Qahramonmarash viloyati bosh muhandisi bir sumka dollar bilan qochib ketayotganda aeroportda ushlendi. Bular qilmishlari uchun davlat va xalqi oldida javob berishi shart, toki bu boshqalar uchun ibrat bo‘lsin.

Mustaqillikdan keyin yurtimiz kundan kun obod bo‘lib bormoqda. Ko‘p qavatli binolar, turar joylar qurildi va qurilmoqda. Qishloqlarda namunali uylar

bunyod etildi. Lekin bu uylarning hammasi ham sifatli, pishiq va mustahkam qilib qurilgan deb ayto olmaymiz. Sababi Jizzaxda hali bitmagan ko'p qavatli bino qulab tushgani hech kimga sir emas.

Men istardimki, xalqimizda halol odamlar ko'paysin. Tayyorlagan sementi, beton-plitalari talabga javob bersin, sifatli bo'lsin; pishirgan g'ishtlari, quygan blok-g'ishtlari qo'ldan tushib ketganida bo'laklanib ketmaydigan, qurgan uylarining tomlari sal shamolga buzilib, shiferlari uchub ketmaydigan bo'lsin. O'zimizning manfaatimiz uchun emas, xalqimiz, elimiz manfaati va kelajagi uchun xizmat qilaylik. Kelajagi buyuk va qudratli davlat bo'laylik. Amir Temur aytganidek, bizning qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurgan imoratlarga boqing, deb faxrlanib yuraylik.

Xulosa qilib aytganda, Turkiya zilzilasi barchaga saboq bo'lsin.

Muhandis va quruvchilarimiz shunday binolar bunyod etsinlarki, ular pishiq, mustahkam bo'lib, uzoq yillar xalqimizga xizmat qilsin. Bobolarimiz qurgan binolardek asrlar osha yashasin.

Shodmonova D.